

3. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o‘rni //Pedagogs. – 2025. – T. 81. – №. 1. – C. 41-46.
4. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). The role of preschool education in spiritual and moral values in uzbekistan. Global Science Review, 3(2), 246-253.
5. Sobitjonova K. " ommaviy madaniyat" va milliy qadriyat //International Conference on Economics, Finance, Banking and Management. – 2025. – C. 330-334.
6. Ergashbayev, S. (2025). Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth’s spiritual outlook. Shokh library, 1(10).
7. Vasenina I. V., Kuleshova N. S., Pronchev G. B. Verbal aggression in virtual social environments //Astra Salvensis. – 2018. – T. 6. – C. 29-37.
8. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Forming the spiritual worldview of youth in pre-school education in our republic. Global Science Review, 4(5), 221-228.
9. Po‘latova N., Nurulloev T. O ‘smirlarda agressivlik namoyon bo ‘lishining psixologik xususiyatlari //Наука и технология в современном мире. – 2025. – Т. 4. – №. 17. – С. 99-103.
10. Ергашбаев, III. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI PEDAGOGIK HAMKORLIK ORQALI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Nigora1996@gmail.com. +998900003322

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik asosida shakllantirishning innovatsion texnologiyalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda pedagogik hamkorlikning mazmuni, shakllari va imkoniyatlari ochib berilib, metodik kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, pedagogik hamkorlikka asoslangan ta‘lim jarayonining samaradorligi tajriba-sinov natijalari orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: metodik kompetensiya, pedagogik hamkorlik, innovatsion texnologiyalar, boshlang‘ich ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga, xususan, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan talablar sezilarli darajada ortib bormoqda. Zamonaviy ta‘lim paradigmasi pedagogdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni ham talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim tizimi uchun tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, ularda o‘qishga bo‘lgan barqaror motivatsiya va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim poydevor vazifasini bajaradi.

J.Yo‘ldoshev va S.Usmonovlarning ta‘kidlashicha, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining kasbiy samaradorligi uning metodik tayyorgarligi darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, aynan metodik kompetensiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatni ongli va maqsadga muvofiq tashkil etishini ta‘minlaydi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Mazkur jarayonda an‘anaviy ta‘lim yondashuvlari bilan bir qatorda pedagogik hamkorlikka asoslangan innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. V.A.Slastenin fikricha, pedagogik hamkorlik ta‘lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va kasbiy o‘shishiga qulay shart-sharoit yaratadi. Shu jihatdan pedagogik hamkorlik bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda pedagogik hamkorlik tushunchasi ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida talqin qilinadi. Xususan, O‘.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik hamkorlikni o‘qituvchi va talaba, shuningdek, talabalarning o‘zaro hamfikrligi va ijodiy sherikligiga asoslangan pedagogik jarayon sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, bunday yondashuv talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik kompetensiya masalasiga oid tadqiqotlarda ushbu tushuncha o‘qituvchining dars jarayonini loyihalash, o‘quv materialini tanlash, metod va vositalardan samarali foydalanish, ta‘lim natijalarini tahlil qilish hamda reflektiv faoliyat olib borish qobiliyatlari majmui sifatida qaraladi. N.X.Xolmatova metodik kompetensiyani boshlang‘ich

ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida yetakchi o‘rin tutuvchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida baholab, uning rivoji ta’lim sifatini ta’minlashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, I.A.Zimnyaya kompetensiyaviy yondashuv doirasida metodik kompetensiyaning shakllanishi o‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga samarali tatbiq eta olish qobiliyati bilan bog‘liqligini qayd etadi. Uning fikricha, innovatsion ta’lim texnologiyalari metodik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Shu bilan birga, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik orqali shakllantirishga oid innovatsion texnologiyalar ko‘plab tadqiqotlarda alohida jihatlar asosida yoritilgan bo‘lib, ularni tizimli va kompleks texnologiya sifatida asoslash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Birinchi bosqichda talabalar metodik faoliyatning ahamiyatini anglashga yo‘naltirilib, ularda kasbiy motivatsiya shakllantirildi hamda hamkorlikka asoslangan qulay ta’lim muhiti yaratildi. D.Abdullayeva ta’kidlaganidek, metodik kompetensiyaning rivoji avvalo talabaning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoji va qiziqishiga bog‘liqdir.

Ikkinchi bosqichda muammoli ta’lim, loyiha metodi, mikrodarslar, interaktiv mashg‘ulotlar kabi innovatsion texnologiyalar orqali metodik bilim va ko‘nikmalar rivojlantirildi. Bu jarayonda talabalar o‘zaro hamkorlikda dars ishlanmalarini ishlab chiqish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali amaliy metodik tajriba orttirdilar.

Uchinchi bosqichda refleksiya va baholash faoliyati tashkil etilib, talabalar o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. A.K.Markovanning fikricha, refleksiv faoliyat pedagogning kasbiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik hamkorlikka asoslangan innovatsion texnologiyalar bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Talabalar metodik bilimlarni amaliy faoliyat orqali puxta o‘zlashtirib, darsni mustaqil loyihalash va innovatsion metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini egalladilar. Olingan natijalar an’anaviy yondashuvlarga nisbatan pedagogik hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni metodik kompetensiyalar rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik orqali shakllantirishning innovatsion texnologiyalari ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish,

talabalarning ijodiy faolligi va metodik mustaqilligini rivojlantirish hamda zamonaviy talablarga javob beradigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 312 b. – 74–86-betlar.
2. Slastenin V.A. Pedagogika: innovatsion faoliyat nazariyasi. – Moskva: Akademiya, 2018. – 368 s. – 109–121-betlar.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik hamkorlik texnologiyalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020. – 190 b. – 48–59-betlar.
4. Xolmatova N.X. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 220 b. – 58–69-betlar.
5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. – Moskva: Issledovatel’skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2017. – 40 s. – 17–25-betlar.
6. Abdullayeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b. – 42–54-betlar.
7. Markova A.K. Psixologiya professionalnogo razvitiya lichnosti pedagoga. – Moskva: Prosveshcheniye, 2016. – 280 s. – 131–142-betlar.

МАСАЛЛАРДА ЛИРИК КЕЧИНМА ВА ОБРАЗЛИЛИК

Джалалетдинова Фотима Таджитдиновна

Алфраганус Университети Филология факультети ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада лирик кечинма ва бадиий яхлитлик ҳақида сўз боради. унда масалнинг ижтимоий ҳаёт билан уйғунлашуви талқин этилади. Жумладан, ҳаётдаги пасту баланд йўлларда адашган инсонки бор, яхшилиқдан паноҳ излайди. Шу масалалар мақолада ўз ифодасини топган.

Калит сўз: образ, услуб, ҳаёт, концепция, персонаж, лирик мен, лирик тушунча.

Аёнки, ҳар бир давр ўзидан олдинги адабий анъаналар негизда ривож топади, теранлашади, шаклланиб, ифода маданиятига янгидан-янги образларнинг, тасвир экзисларини тақдим қилади. Гулханий икки давр оралиғида ижод қилди. Бу боисдан ҳам, ичидан емирлаёзган тузум орқали, ўтмишни, яшаётган муҳит ва шароитнинг оғриқларини ҳис қилиб, эртанги кунига ишонч йўқлигини, хонликлар, амирликлар таназзулининг нечоғли аянчил